

1-mavzu. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati



•1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. “Media savodxonlik” tushunchasi, mazmun va mohiyati.

•2. “Axborot madaniyati” tushunchasi mazmun va mohiyati


•3. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi va dialektikasi.

•4. Xorijiy mamlakatlarda media savodxonlik va axborot madaniyatining qiyosiy tahlili.

Asosiy adabiyotlar:


1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyot yo'lida. O'quv qo'llanma. Extremum-press, 2015.-94.6
2. Yaxyo Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. Movarounnahr, 2016.-672 b
3. Федров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность: учебное пособие - М. 2013.
4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - Extremum-press, 2017.-142.6

Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:



Birinchidan, media savodxonlik va axborot madaniyati – bevosita inson ongi va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish orqali insonni o'z aqidalari, muqaddas ideallari va e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Demak, media savodxonlik va axborot madaniyatiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga ma'naviy-ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralar mavjudligidan kelib chiqadi.


Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:



Ikkinchidan, media savodxonlik va axborot madaniyatiga rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, buzg'unchi g'oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo'lgan xalqlar va millatlarni g'oyaviy genotsidga olib kelishi muqarrar.

Uchinchidan, tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, xalqning siyosiy ongi, huquqiy bilimlari saviyasi, ma'naviy-ma'rifiy darajasiga qarab jamiyatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishi turgan gap.

Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:




To'rtinchidan, ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta'sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublari tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, media savodxonlik va axborot madaniyati muammosining dolzarbligiga yanada jiddiyroq e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Beshinchidan, media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasining mohiyati shundaki, u alohida olingan inson, jamiyat tushunchalari doirasidan chiqib ketib, yaxlit insoniyat, butun kishilik taqdiri bilan bog'liq global masalalarni ham qamrab oladiki, ushbu jihati bilan u hozirgacha mavjud bo'lib kelgan global muammolarning eng tajovuzkori, eng buzg'unchisi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu holat xalqaro siyosatda, davlatlararo, mintaqalararo muammolarni hal etishda buyuk davlatchilik shovinizmi avj olishi mumkin bo'lgan holatlarda yana ham xavfliroq mohiyat kasb etadi.

Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasini quyidagi holatlar asosida talqin qilish tavsiya etiladi:



Oltinchidan, media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi ma'lum bir xalq, millat, mamlakat hayotida jiddiy ijtimoiy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan tinchlik va barqaror taraqqiyot yo'lida unumli foydalanishni va ularni boshqarishni, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga siyosiy tus bermaslik usullarini ishga solishni taqozo etadi.

Fanning obyekti

inson va uning ongi, ijtimoiy fikr bilan bir qatorda barcha turdagi medialar va ularda tarqatilayotgan axborotlar hamda zamonaviy ko'p tarmoqli global jarayonlar e'tirof etiladi.

Fanning predmeti

medialarni to'g'ri tushunish uchun talab-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tamoyillar, muammolar va bilimlardir.

Fanning maqsadi:



O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining barcha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarida media savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishning imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilish bilan bog'liq bilim hamda malakalarni takomillantirishdan iborat.

● Fanning asosiy vazifalari




1. Axborot asrining o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va ahamiyatini hamda istiqbolli va xavfli jihatlarini ochib berish.
2. Axborot qarama-qarshiligining mohiyatini anglash, tamaddunlar (sivilizatsiyalar) to'qnashuvi nazariyasiga va axborot-psixologik urushning bugungi holatiga xolis baho berish.
3. O'zbekistondagi media savodxonlik va axborot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va ayrim muammolari haqida fikr-mulohaza yuritish.
4. Media savodxonlik va axborot madaniyatiga davlat, jamiyat va shaxs mavqei nuqtai nazaridan baho berish.
5. Xalq ongida "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasini mustahkam qaror toptirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish media savodxonlik va axborot madaniyatini fanning muhim omili ekanligini ochib berish.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasiga o'tish kontseptsiyasining ishlab chiqilishi va unda jamiyatda shakllangan media savodxonlik va axborot madaniyatining ahamiyati va keng ko'lami va imkoniyatlari haqida tegishli mulohazalar yuritish.

Media



“Media” (lotincha - medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) keng tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga aloqa vositalarini, axborotni uzatish usullarini, shuningdek, ular hosil qiladigan muhitni (media makonini) oladi, yoki turli ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi.

Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi



Media hozirgi vaqtda ma'lum bir iste'molchiga axborot xabarini u yoki bu shaklda yetkazish uchun xizmat qiluvchi texnologik vositalar va aloqa usullarining butun majmuasini o'z ichiga olgan keng tushunchadir.

u matn, musiqa, tasvir ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, undan
mediakontentni - yangiliklar,
reklama e'lonlari, elektron
o'yinlar va filmlarni belgilash
uchun foydalaniladi.

Birinchidan, OAVni:
gazeta, televideniye,
radio, kitob va Internetni
anglatadi.

Uchinchidan, u
mediakontentni ishlab
chikaruvchilar, jurnalistlarni,
fotosuratchilarni,
mediakompaniyalarni va
xokazolarni xam bildirishi
mumkin.


«Media»

“Media” konsepsiyasini ishlab chiqish asoschilari Toronto universiteti xodimlari Garold Innis va Marshall Maklyuhanlardir.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to‘g‘ri savol bera olishdir



Savodxonlik




Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi.




Media savodxonlik

- inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.





“Media savodxonlik nima uchun kerak?”



Faktlar tahlili (Sizningcha bu xolat to‘g‘rimi?)

Hozirgi kunda eng ommabop saytlar – daryo.uz va kun.uzdagi eng ko‘p o‘qiladigan xabarlar quyidagicha: “Xonanda...ning sobiq turmush o‘rtog‘i uylandi”(20305 marta o‘qilgan), “Estrada yulduzi...o‘z suratlari tarqalishida ...ni aybladi”(23533 marta o‘qilgan), “Xonanda ...sobiq turmush o‘rtog‘ining uylanishiga munosabat bildirdi”(10278 marta o‘qilgan) va h.k. Qiyoslash uchun berilgan ma’lumotda ko‘rsatilishicha, tahliliy ma’rifiy materiallar beriladigan “Xurshid Davron kutubxonasi” sayti (kh-davron.uz)da Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan Alisher Navoiyga bag‘ishlangan qismi 67, N.Komilovning Navoiy haqidagi maqolasi 68, M.Behbudiyning yoshlarga bag‘ishlangan asarlari 82 marta o‘qilgan.

“Axborot”

“Axborot” atamasi ko‘plab tavsifga ega. U ma’lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, **axborot** – bu to‘plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay bo‘lgan ko‘rinishda taqdim etiladigan ma’lumotlardir. Axborotni yana bir boshqacha tavsifi – “tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar”dir

Lotin tilida “informatio” – tushuntirish, bayon qilish demakdir. Keng ma’noda axborot ta’rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vinerning yozishicha, “**axborot** – bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir”.

AXBOROT TUSUNCHASI VA UNING TURLARI



Axborot - butun borliq, undagi ro'y beradigan hodisalar va jarayonlar xaqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi.

Axborot deganda atrof muhitdan, (tabiatdan yoki jamiyatdan) sezgi a'zolarimiz (ko'z, quloq, burun, og'iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma'lumotni tushunamiz.

Axborot asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Matnli axborot;
2. Grafikli axborot;
3. Tovushli axborot;
4. Videolavhali axborot;
5. Belgili axborot;
6. Raqamli axborot.





“Ma’lumotlar” tushunchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan dalillar majmuini aks ettiradi.

Axborot bu oqilona foydalanish uchun muayyan shaklga solingan ma’lumotlardir.

Madaniyat odamlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari va turlarida, hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarda o‘z ifodasini topgan jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan tarixiy saviyasi tushuniladi.

Media va axborot savodxonligi - bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir.

"Axborot madaniyati" tushunchasi quyidagi mazmunlarni o'zida mujassam etadi:

- inson bilim egallashning zamonaviy vositalari, qayta ishlash va tizimlashtirish malakasiga ega bo'lishini;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan axboriy jarayonlarning mohiyatini tushunishni;

- faoliyat sohasiga oid xususiyatlari hamda turli manbalar bilan ishlashni bilish, axborotni tahliliy kayta ishlash asoslarini o'rganishni va boshqalar.

**AXBOROT MADANIYATI - BU
INSONNING AXBOROT
MAVJUDLIGIGA ERKIN
KIRISHIGA IMKON
BERADIGAN YANGI ALOQA
TURI;
MIKHAILOVSKIY V.N.**



**SHAXS AXBOROT
MADANIYATINING ENG
MUHIM
ELEMENTLARIDAN BIRI
AXBOROT RESURSLARINI
BILISHDIR (ILOJI BO'LSA,
ULARDAN ERKIN
FOYDALANISH
IMKONIYATIGA EGA
BO'LISH).**

05.02.2023

Tuzuvchi: Abror To'rayev, s.f.f.d.(PhD)



BIRINCHI MARTA
“AXBOROT
SAVODXONLIGI”
TUSHUNCHASI 1977
YILDA AQSHDA
KIRITILGAN VA OLIY
TA'LIMNI ISLOH
QILISH MILLIY
DASTURIDA
QO'LLANILGAN.



Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi

1

Dastlabki medialarning paydo bo'lishi va savodxonlikning yuzaga kelishi yozuv kashf etilishi bilan bog'liqdir.

2

Medialar evolyutsiyasining Ikkinchi bosqichi (XVI asr o'rtalari) – kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Bu hodisa axborotlarni saqlabgina qolmay, ularni ommaga yoyish imkoniyatini yaratdi. Savodxonlik alohida tabaqalar doirasidan chiqib, ommaviy tusga kirdi.

4

Medialar evolyutsiyasining to'rtinchi bosqichi (XX asrning 70-yillari) mikroprotsessori texnika va xususan, personal kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

3

Medialar evolyutsiyasining uchinchi bosqichi (XIX asr oxiri) aloqa vositalarining taraqqiyoti bilan bog'liq. Telegraf, telefon va radio ma'lumotlarni turli masofalarga operativ uzatish va qabul qilish imkonini berdi.

MEDIASAVODXONLIK BUYUK
BRITANIYA VA AVSTRALIYADA
GUMANITAR FANLAR MAJMUASIDA
ALOHIDA FAN SIFATIDA O‘TILSA,
FINLYANDIYADA 1970-YILDAN O‘RTA
MAKTABLARNING, 1977-YILDAN ESA
OLIV O‘QUV YURTLARNING O‘QUV
DASTURLARIGA KIRITILGAN EDI.
1990-YILLARDA ESA MAMLAKATDA
MEDIASAVODXONLIK MEDIATA’LIM
TUSHUNCHASI BILAN
ALMASHTIRILDI.

